<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process.....	1014
	Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
	The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....	1019
	Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
	Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati.....	1025
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi	
	Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....	1028
	Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1031
	Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.....	1034
	Iminova Z. B.	
	Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....	1038
	Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
	O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1044
	Kalmuratovna Venera Sultanova	
	Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari.....	1049
	Kamola Abdullayeva	
	O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....	1052
	Karimov Orif Obloqul o'g'li	
	Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....	1055
	Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
	Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....	1060
	Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....	1063
	Makulov Shuxratjon Zokirovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....	1067
	Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....	1072
	Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....	1075
	Mansurova Umida Mansur qizi	
	Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....	1081
	Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
	Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....	1084
	Murodov Nozimjon Olimjonovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....	1088
	Nafasova Jamila Turg'un qizi	
	Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....	1093
	Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....	1097
	Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
	Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
	O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
	Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
	Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	1108
	Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
	Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
	Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parnonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta‘lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta‘limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta‘sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafroz Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta‘lim tizimini moliyalashtirish.....	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta‘lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндинов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчехра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta‘siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta‘lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	
Malaka oshirish jarayonida ta‘lim sifatini oshirish masalalari.....	1223
Amanova Durdona Kaxramonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari	1226
Berdiyeva Muhabbat Meliyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati	1229
Eshbekova Gulbahor	

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	1233
G'afforova Xurriyat Yangiboyevna	
Kimyo fani o'rganuvchilari ongida moddalarning hosil bo'lish jarayonining mazmun-mohiyatini ularning genetikasiga asoslab tushuntirish.....	1238
Jabbarova Dilafro'z Bo'riyevna	
Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training	1242
Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Qudratovna	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati.....	1246
Maxmudov Azamjon Muxtorovich	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'Ichiyev Shaxriyor Xusanovich	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish	1254
Pirniyazova Sholpan Oteniyazovna	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
Raxmatov A'zam Ashur o'g'li	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1262
Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
Sharipova Sarvinoz Sayid qizi	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
Usmonova Mohizoda Avazjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
Xomidova Dilorom Abduraxmonovna	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
Yavkochdiyeva Dilafuz Egamqulovna	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России	1293
Сярова Айнур Ибодуллаевна	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
Kilichev Nurulla Abbosovich	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
Abdushukurova Mushtariy	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сибборд": педагогические условия.....	1310
Нумонжоннова Фарангиз Комиловна	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli	1314
Choriyeva Xurmo Panji qizi	
Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi	1316
Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari.....	1321
Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi	
Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....	1325
Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich	



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyani o'rganish va korreksiyalash	1329
<i>Azimova Aziza Baxtiyorovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari	1333
<i>Mirzayeva Dilafuz</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1337
<i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari	1342
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri	1346
<i>Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich</i>	
Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi.....	1349
<i>Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna</i>	
The Integration of Web Technologies in Language Education	1353
<i>Kadirova Feruza Hikmatullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi.....	1357
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education.....	1360
<i>Nishonova Munira Yakubjonovna</i>	
Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari	1364
<i>Mamirova Dilorom Tavakulovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida	1367
<i>Meliboyev Tavakkal Turg'unovich</i>	
Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari.....	1371
<i>Mexmonov Ismat Toshpo'latovich</i>	
Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	1375
<i>Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari	1379
<i>Mo'minov Durbek No'monovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari	1383
<i>Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboiyevna</i>	
Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT	1386
<i>Nizomov Feruz Raxmon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1389
<i>Nurmonova Zebo Fattaxovna</i>	
Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish.....	1392
<i>O'ktam Nosirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqini o'stirish texnologiyalari.....	1398
<i>O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega	1402
<i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti	1405
<i>Quldashv Murodjon G'aniyevich</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari	1409
<i>Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi</i>	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar	1412
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida)	1416
<i>Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li</i>	



Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati (ingliz tili mashg'ulotlari misolida)	1419
Sotkulova Dildora Odinabekovna	
Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati	1423
Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova	
Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish	1427
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida	
Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar	1430
Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna	
Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli	1436
Yunusova Diloramxon Abdumajitovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari	1440
Aripova Nodira Shuxratovna	
Методы развития устной речи детей дошкольного возраста	1444
Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи	

ZAMONAVIY JISMONIY TARBIYA SOHASINING MUHIM JIHATLARI VA ASOSIY ELEMENTLARI

Mamirova Dilorom Tavakulovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Sahna harakati va jismoniy
madaniyat" kafedrası professor v.b.

Annotatsiya: Bugungi ta'lim tizimida jismoniy madaniyat va sport fani markaziy fanlar qatoridan mustahkam o'rin egal-lamoqda. Talabalar hamda o'quvchi yoshlar orasida jismoniy madaniyatga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ushbu fan orqali nazariy va amaliy bilimlarni kundalik hayotda qo'llash, salomatlikni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda kelgusi kasbiy faoliyatda undan unumli foydalanish zarurati tobora kuchaymoqda. Mazkur maqolada zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari ilmiy tahlil asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, yoshlar, sog'lom muhit, tarbiya, sport, jismoniy madaniyat, besh tashabbus, olimpiada, ta'lim, jismoniy mashq.

Abstract: In the modern education system, physical education and sports hold a significant position among core academic disciplines. Interest in physical education is increasing among students and the younger generation, as they recognize the importance of acquiring both theoretical and practical knowledge to maintain health, develop a healthy lifestyle, and prepare for future professional activities. This article provides an analytical overview of the important aspects and key elements of the modern field of physical education.

Key words: society, youth, healthy environment, education, sports, physical culture, five initiatives, olympiad, physical training.

Аннотация: В современной системе образования физическая культура и спорт занимают прочное место среди ключевых дисциплин. Среди студентов и учащейся молодежи растёт интерес к изучению физической культуры, к её теоретическим и практическим аспектам, которые способствуют укреплению здоровья, формированию здорового образа жизни и успешной будущей профессиональной деятельности. В статье представлены аналитические выводы о важных аспектах и основных элементах современной сферы физического воспитания.

Ключевые слова: общество, молодежь, здоровая среда, воспитание, спорт, физическая культура, пять инициатив, олимпиада, образование, тренировка.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son¹ Farmonida yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishni ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bois jismoniy madaniyat darslariga va o'quv-mashg'ulot jarayonlariga yangicha nazar bilan yondashish taqozo etiladi. Yosh avlodda jismoniy madaniyatga oid bilimlarni shakllantirish, sportda yuksak natijalarga erishishni ta'minlash uchun maktab yoshidan boshlab ularda mustahkam poydevor yaratish lozim. Bu esa jismoniy madaniyat mutaxassislarida katta mas'uliyatni, ya'ni jismoniy madaniyat darslarini to'g'ri tashkillashtirishni, darslarni mazmunli o'tkazish uchun yangi ilg'or texnologiyalardan foydalanishni, yangi uslubiyatlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-3578121>



va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining nazariy asoslari va rivojlanish yo'nalishlari o'zbek olimlari tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Xolova Sh. M. jismoniy madaniyatning yoshlar salomatligini mustahkamlash va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rnini yoritib, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Matnazarov O'. L. esa jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini tizimli tushuntirib, jismoniy sifatlar – kuchlilik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqqan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qaror va dasturlarda jismoniy tarbiya va sport infratuzilmasini yaxshilash, yoshlar o'rtasida ommaviy sportni keng targ'ib qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Ushbu adabiyotlar jismoniy tarbiya sohasida ilmiy-metodik yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda nazariy va amaliy ma'lumotlarni yig'ishning integrativ yondashuvi qo'llanildi. Ma'lumotlar, bir tomondan, mavjud ilmiy adabiyotlar, davlat dasturlari, qonun hujjatlari va o'quv-metodik manbalarning mazmuniy tahlili orqali to'plandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, jismoniy madaniyat va sport nazariyasiga doir ilmiy manbalar hamda soha bo'yicha chop etilgan metodik qo'llanmalar birlamchi nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Boshqa tomondan, amaliy jarayonlarni o'rganish maqsadida umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat darslarini kuzatish, o'quv mashg'ulotlarining mazmuni, ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanishi, sport infratuzilmasidan foydalanish darajasini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. O'lchovchan ko'rsatkichlarni aniqlash maqsadida statistik ma'lumotlar, jumladan yoshlar orasidagi sog'lom turmush tarziga amal qilish holati, jismoniy mashg'ulotlarga jalb etilganlar soni hamda sport natijalarining o'sish dinamikasi solishtirma tahlil asosida o'rganildi. Olingan natijalar taqqoslash, umumlashtirish va kontent tahlili usullari orqali qayta ishlanib, jismoniy tarbiya sifatini oshirishga xizmat qiluvchi omillarning funksional roliga baho berildi. Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi nazariy manbalar tahlili hamda amaliy jarayonlarni o'rganishga asoslangan bo'lib, mavzuga oid ilmiy xulosalar shakllanishini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Demokratik jamiyatning rivojlanganlik darajasi jamiyat a'zolarining shaxsiy qobiliyatlarini va iqtidorini yanada rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar mavjudligi bilan aniqlanadi. Respublikamizda mustaqillikka erishilganidan keyingi yillar davomida shaxs qobiliyatlarini erkin rivojlantirish uchun misli ko'rilmagan darajada keng amaliy imkoniyatlar yaratilgan. Buni jismoniy madaniyat va ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlari misolida ko'rish mumkin. 2005-yilda yurtimizda mutlaqo sog'lom bolalar ko'rsatkichi 52,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda ushbu ko'rsatkich 62,6 foizga yetgan ^[2].

Taraqqiy etgan davlatlarda bu ko'rsatkich 70–72 foizni tashkil etishini hisobga olsak, O'zbekistonda bu sohada bajarilgan ishlar ko'lami qanchalik keng ekanligini tasavvur qilish qiyin emas.

Jismoniy tarbiya insoniyat jamiyati tarixining dastlabki davrlariga taalluqlidir. U obyektiv (jamiyat ehtiyojini ta'minlovchi ishlab chiqarish) va subyektiv (inson salohiyati) omillar hamjihatligida namoyon bo'ladi. Bir qancha ming yillar davomida inson kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik va epchillik evaziga hayvonlarni ovlab kelgan. Samarali ov qilishga ovchilar jamoasining jismoniy tayyorgarligi orqali erishilgan. Nayza uloqtirish, mehnat qurolaridan foydalanish insonning maxsus faoliyati bo'lib, yangi harakat malakalarini shakllantirishni talab qilgan. Shu tariqa odamlar jismoniy mashqlar yordamida o'zlarini kundalik faoliyatga va mehnat amaliyotiga tayyorlab borganlar. Salomatlik darajasining oshishi va jismoniy tayyorgarlik ishlab chiqarishga ham ta'sir ko'rsata boshlagan.

Jismoniy tarbiya yordamida insonlarning salomatligi mustahkamlanadi, ishchanlik qobiliyati oshadi, jismoniy sifatlari rivojlanadi, mehnat, harbiy soha, hayot va sportdagi zarur ko'nikma hamda malakalari shakllanadi va rivojlanadi. Ushbu faoliyatlarni to'laqonli amalga oshirishda maqsad va vazifalar belgilanadi ^[3].

Maqsad deb inson yoki jamiyat faoliyatining yakuniy natijasiga aytiladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi inson jismoniy rivojlanishini optimallashtirish, jismoniy sifatlar va ular bilan bog'liq axloqiy, ma'naviy hislatlarni har tomonlama shakllantirish hamda jamiyat a'zolarini samarali mehnat va boshqa faoliyat turlariga tayyorlashdan iborat. Mazkur maqsadlarga erishishni ta'minlashda (maxsus va umum-pedagogik) tarbiya jarayonining ko'p qirraliligi, yosh jihatdan rivojlanish bosqichlari va sharoitlar majmuasi hisobga olinadi.

Mamlakatimizda professional va ommaviy sportni, shu jumladan sport o'yinlari va qishki sport turlarini rivojlantirishni rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash, ilg'or xalqaro tajribani inobatga olgan holda sport tayyorgarligi jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, barcha sport turlari bo'yicha milliy chempionatlar darajasi va sifatini oshirish, xalqaro va mintaqaviy musobaqalar tashkil etish, nosog'lom sport raqobatiga va taqiqlangan preparatlar qo'llanishiga qarshi tizimli choralar ko'rish ishlari amalga oshirilmoqda.

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tashkilotlari, ob'ektlari va inshootlarining ommaviy sport, bolalar sporti hamda professional sport yo'nalishlari bo'yicha moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash, ulardan samarali foydalanishni ta'minlash, sport asbob-uskunalari va inventarlarini mamlakatimizda ishlab chiqarilishini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga e'tibor qaratilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish, ta'lim va sport-ta'lim muassasalarini yuqori malakali trenerlar va boshqa sport mutaxassislari bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish, ommabop sport dasturlarini tashkil etishga ko'maklashish, jismoniy tarbiya va sportga oid ommaviy adabiyotlar chop etish, video va kino materiallar tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, iste'dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

Jismoniy sifatlarning har tomonlama rivojlanishi inson uchun nihoyatda muhimdir. Ular mehnat va hayot faoliyatida keng qo'llaniladi.

Aholi salomatligi, to'laqonli faoliyat yuritishi va baxtli hayot kechirishi har bir davlatda moddiy boylik sifatida qadrlanadi. Mustahkam sog'lik va organizm fiziologik tizimlarining to'g'ri rivojlanishi asosida kuchlilik, tezkorlik, chidamlilik, epcillik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni yuqori darajada shakllantirish mumkin.

Inson organizmining fiziologik funksiyalarini har tomonlama rivojlantirish jismoniy sifatlari va harakat malakalarining takomillashuviga olib keladi. Ushbu jarayon gavda tuzilishini to'g'ri shakllantirishga, jismoniy nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi. Jismoniy tarbiyaning maxsus ta'limiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- hayot uchun zarur bo'lgan turli harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- ilmiy-amaliy tavsifdagi tayanch bilimlarni egallash.

Inson jismoniy sifatlarni to'laqonli qo'llay olishi uchun u harakat malakalariga ega bo'lishi lozim. Harakatga o'rgatish natijasida harakat ko'nikma va malakalari shakllanadi. Harakat malakalari qanchalik ko'p bo'lsa, yangi harakatlarni o'zlashtirish shunchalik oson bo'ladi.

Jismoniy mashqlar samaradorligi uning mazmuni bilan belgilanadi. Jismoniy mashqlar mazmuni – mashq bajarish vaqtida inson organizmida kechadigan fiziologik, psixologik va biomexanik jarayonlar yig'indisidir. Jismoniy mashqlarning sog'lomlashtiruvchi va ta'limiy ahamiyati shaxsga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri orqali namoyon bo'ladi.

Sog'lomlashtiruvchi ahamiyatiga ko'ra, jismoniy mashqlar organizmda morfologik va funksional o'zgarishlarga moslashuvchanlikni yuzaga keltirib, salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, yurak-qon tomir kasalliklari, gipokineziya va gipodinamiyada ularning davolovchi xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chidamlilikni takomillashtirishda esa nafaqat biror ishni uzoq vaqt bajarish, balki yurak-qon tomir va nafas tizimlarining ham izchil rivojlanishi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy jismoniy tarbiya tizimi yosh avlodning salomatligini mustahkamlash, jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan so'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishga qaratilgan qaror va dasturlar mazkur sohaning izchil rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Pedagogik jarayonlarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, sport infratuzilmasini takomillashtirish, malakali mutaxassislari tayyorlash hamda yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif etiladiki, umumta'lim muassasalarida dars jarayonlarini amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish, iqtidorli sportchilarni saralash tizimini yanada takomillashtirish, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamliloyihalarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qaror. – 2023-yil 13-iyun. – Lex.uz. URL: <https://lex.uz>
2. Xolova Sh. M. Jismoniy madaniyat va sport: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017. – 183 b.
3. Matnazarov O'. L. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press MCHJ, 2022. – 165 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.